



THE ROLE AND IMPORTANCE OF POLITICAL INSTITUTIONS IN THE SOCIAL ADAPTATION OF YOUTH

Otaniyoz Gafforovich Eshdavlatov

Independent Researcher

Uzbekistan State University of World Languages

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: youth, society, social adjustment, youth social adjustment, institutions, political institutions.

Abstract: The article describes the role, importance and functional role of political institutions in the process of social adaptation of young people to society.

Received: 19.11.25

Accepted: 20.11.25

Published: 21.11.25

YOSHLAR IJTIMOY MOSLASHUVIDA SIYOSIY INSTITUTLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Otaniyoz G'afforovich Eshdavlatov

O'zbekiston davlat jahon tillari

universiteti mustaqil izlanuvchisi

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlari: yoshlar, jamiyat, ijtimoiy moslashuv, yoshlar ijtimoiy moslashuvi, institutlar, siyosiy institutlar.

Annotasiya: Maqolada yoshlarning jamiyatga ijtimoiy moslashuvi jarayonida siyosiy institutlarning o'ri, ahamiyati va funksional roli bayon etilgan.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ПОЛИТИЧЕСКИХ ИНСТИТУТОВ В СОЦИАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ МОЛОДЁЖИ

Отанийоз Гаффорович Эшдавлатов

Самостоятельный исследователь

Узбекского государственного университета мировых языков

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: общество, социальная адаптация, социальные институты, политические институты.	Аннотация: В статье раскрываются место, значение и функциональная роль политических институтов в процессе социальной адаптации молодежи к обществу.
--	--

Kirish. Ma'lumki, hozirgi kunda mamlakatimiz keng ko'lamli ijtimoiy-siyosiy islohotlar davrini boshdan kechirmoqda. "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi doirasida jamiyatning barcha jabhalarida yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlarda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash, ularni jamiyatdagi yangi sharoitlarga moslashtirish dolzarb vazifadir. Bu borada siyosiy institutlar (davlat organlari, nodavlat tashkilotlar, yoshlar tashkilotlari) o'rni va roli kattadir. Mamlakatimizda yoshlar aholining katta qismini tashkil etadi hamda yoshlar masalalari, ular tafakkuri va dunyoqarashi, qadriyatlari, maqsadlari, orzu-istaklari, qiziqishlari, intilishlari, muammolari, ta'limi, ma'naviyati, madaniyati, ularning ijtimoiy-iqtisodiy mo'ljallari, ijtimoiy-siyosiy moslashuvi, ijtimoiylashuvi, kamoloti masalalari yoshlarga oid davlat siyosatining asosini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir. Mamlakatimiz aholisining yarmidan ko'pini yoshlar tashkil etishini inobatga olsak, bu naqadar jiddiy masala ekani yanada yaqqol ayon bo'ladi." [1]

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy sohadagi keng ko'lamli islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning yuksak ma'naviyatga erishuvini ta'minlash, ijtimoiy taraqqiyot jarayonida har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirish, ularning ijtimoiy-siyosiy moslashuvi jarayonlarida siyosiy institutlar funksional roli, ishtirok va samaradorligini oshirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan hamda yetuk barkamol shaxsni voyaga yetkazishdir.

Bugungi kunda turli ijtimoiy-gumanitar fanlar kesimida jumladan, falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik, huquq, pedagogika, psixologiya fanlaridagi ilmiy-nazariy adabiyotlar tahlili "ijtimoiy moslashuv" kategoriyasining o'rganilishi bo'yicha muayyan baza shakllanganligini ko'rsatmoqda. Siyosatshunoslik fanida ham "ijtimoiy moslashuv", "yoshlar ijtimoiy moslashuvi" tushunchalari va yoshlar ijtimoiy moslashuvi jarayonlarini ilmiy-nazariy o'rganish va tizimli tadqiq etish muhim hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti, hozirgi global muhit, geosiyosiy, geoiqtisodiy jarayonlar va shaxsning, xususan yoshlarning rivojlanishga nisbatan, mavjud ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy muhitga moslashishga nisbatan ichki intilishi ijtimoiy moslashuvning asosiy manbai bo'lib hisoblanadi.

Ijtimoiy moslashuv shaxsni, yoshlarni yangi ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy muhitga moslashuvi, muvofiqlashuvi bo'lib, ijtimoiylashuv mexanizmlarining asosi hisoblanadi, ya'ni shaxs, xususan yoshlar jamiyatdagi mavjud me'yorlarga, yurish-turish qoidalariga, madaniyat, urf-odat va ahloq normalarini egallab, unga moslashishi hamda mazkur jarayonning jamiyat yo'nalishi maqsadi va tajribasi bilan mos kelishi bilan ifodalandi.

Yoshlarning ijtimoiy moslashuvi siyosiy fanlar uchun muhim tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Ijtimoiy moslashuv jarayoni yoshlarning siyosiy tizimga moslashishi, siyosiy madaniyatni shakllantirishi va fuqarolik faolligini oshirishga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli, yoshlarning ijtimoiy moslashuvini o'rganish, jamiyatning rivojlanishi va barqarorligi uchun muhimdir.

Ma'lumki, yoshlarning jamiyatga ijtimoiy moslashuvi o'ziga xos jarayon bo'lib, mazkur jarayon turli omillar ta'sirida kechadi va albatta yoshlarning ijtimoiy moslashuvida siyosiy institutlarning o'rni va funksional roli muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ijtimoiy moslashuv kategoriyasining nazariy asoslari klassik tushunchalarda ham, zamonaviy nazariyalarda ham asoslangan. G.Spenser sotsiologiyaning shakllanishi davrida ijtimoiy moslashuvga birinchilardan bo'lib murojaat qilgan bo'lib, u ijtimoiy moslashuvda shaxsning jamiyat bilan barqaror muvozanatlashuvi mexanizmini ko'rgan. Shu ma'noda, shaxs va ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida ijtimoiy moslashuv (G.Spenser[2], F.Znanetski[3], V.Tomas[4]), moslashuv ijtimoiy normalarga moslashish sifatida (E.Dyurkgeym[5]), adaptatsiya shaxs va jamiyat o'rtasidagi murosa sifatida (T.Parsons[6]), moslashuv ijtimoiy tartibsizlik sharoitida moslashish usuli sifatida (R. Merton[7]) ijtimoiy moslashuv kategoriyasining talqinlari tahlili yoritilgan.

Siyosiy fanlarning asosiy kategoriyalaridan biri hisoblangan siyosiy institutlarning mamlakat va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatiga nisbatan qiziqish, bu boradagi tadqiqot yo'nalishlari tobora o'sib, kengayib borayotganligini ta'kidlash joiz.

Ijtimoiy institut hisoblangan siyosiy institutlarning tarkibiy xususiyatlarining ularning kelgusidagi taraqqiyoti bilan o'zaro bog'liqligini, zaruriyatini Aflotun izohlagan edi.

Birinchi marta institut atamasi ijtimoiy fanlarda italiyalik olim Djambattista Viko (1668-1744) tomonidan qo'llanilgan.

XX asrning 70-yillari boshida M.Dyuverje institutlarning yangi tushunchasini ishlab chiqdi. U siyosiy strukturalizm nazariyasi ta'siri ostida vujudga kelgan bo'lib, ham o'zining xarakteriga, ham xajmiga ko'ra an'anaviy institut tushunchasidan farq qiladi.

Davlat va boshqa ijtimoiy institutlar o'rtasidagi munosabatlar masalasini M.Oriu "tenglar orasida birinchi" g'oyasi orqali tushuntirishga harakat qiladi.

Uningcha "davlatga suverenitet sifatida emas, balki institutlar ichida bosh institut sifatida qarash kerak"[8].

Amerikalik tadqiqotchi T.Parsonsning qarashlarida siyosiy institutlarni zamonaviy modernizatsion jarayonlarda, yangi munosabatlarda asosiy boshchilik qiluvchi tuzilma sifatida qarash ham ko'zga tashlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'lumki, jamiyatdagi siyosiy voqea-hodisalar va jarayonlarni o'rganishda, tadqiq qilishda siyosatshunoslik fani umumiy, umummantiqiy va ushbu fanga xos xususiy bo'lgan xilma-xil tadqiqot usullaridan foydalanadi.

Siyosatshunoslik siyosiy hodisa va jarayonlarni o'rganishda xilma-xil usullardan foydalanadi. Bu usullar uning predmetini chuqurroq va har tomonlama bilish imkonini beradi. Eng ko'p qo'llaniladigan ahamiyatga molik usullarni uch guruhga bo'lish mumkin:

- siyosatni tadqiq etishning umumiy usullari (Ularni zamonaviy siyosatshunoslikda ko'pincha “umumiy yondashuvlar” deb ham atashadi);
- siyosatni tadqiq etishning umummantiqiy usullari;
- empirik tadqiqot usullari. [9]

Yoshlar ijtimoiy moslashuvida siyosiy institutlarning o'rni va ahamiyati masalasi hamda uning o'rganilishi doirasida tadqiqot ishining xususiyatidan kelib chiqib, kuzatuv, kontent tahlil, statistik tahlil, empirik tadqiqot usuli va boshqa tahlil usullaridan foydalangan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Jamiyat taraqqiyoti, hozirgi global muhit, geosiyosiy, geoiqtisodiy jarayonlar va shaxsning, xususan yoshlarning rivojlanishga nisbatan, mavjud ijtimoiy muhitga moslashishga nisbatan ichki intilishi ijtimoiy moslashuvning asosiy manbai bo'lib hisoblanadi.

Ijtimoiy moslashuv shaxsni, yoshlarni yangi ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy muhitga moslashuvi, muvofiqlashuvi bo'lib, ijtimoiylashuv mexanizmlarining asosi hisoblanadi, ya'ni shaxs, xususan yoshlar jamiyatdagi mavjud me'yorlarga, yurish-turish qoidalariga, madaniyat, urf-odat va ahloq normalarini egallab, unga moslashishi hamda mazkur jarayonning jamiyat yo'nalishi maqsadi va tajribasi bilan mos kelishi bilan ifodalandi.

Ijtimoiy moslashuv — individning ijtimoiy muhitga doimiy faol moslashish jarayoni va bu jarayonning natijasi. Ijtimoiy moslashuv uzluksiz xususiyatga ega ekanligiga qaramasdan, uni, odatda, individning o'z faoliyatini va o'zini o'rab turgan ijtimoiy davrasini tubdan o'zgartirish davrlari bilan bog'laydilar. Moslashish jarayonining ijtimoiy muxitga faol ta'sir etish ko'rinishi va muhitdagi maqsad va qadriyatlarni kelishuvchanlik bilan, passiv qabul qilish ko'rinishi bo'ladi. Ijtimoiy moslashuv shaxs ijtimoiylashuvining asosiy ijtimoiy-psixologik omillaridan biridir. [10]

Tadqiqotchi A.Kovalevaning yozishicha, ijtimoiylashuv o'z ichiga barcha ijtimoiy jarayonlarni qamrab olgan bo'lib, ya'ni individning belgilangan normalar va qadriyatlarni o'zlashtirishi va jamiyat a'zosi sifatida ulardan keng qamrovda foydalanishida namoyon bo'ladi [11].

Demak, ijtimoiy moslashuv shaxs ijtimoiylashuvi, uning jamiyat norma va talablariga, yurish-turish qoidalariga, ijtimoiy muhitga doimiy faol moslashish va qadriyatlarni o'zlashtirishi jarayoni va bu jarayonning natija ko'rinishi hisoblanadi.

Yoshlarning ijtimoiy moslashuvi – yoshlarning oilaviy munosabatlar, ta'lim-tarbiya muhiti, mahalla va jamoatchilik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda, axborot-kommunikatsion, bandlik, kasbiy va mehnat faoliyatlari jarayonlarida doimiy va faol tarzda ishtirok etishi natijasida sodir bo'ladigan mavjud ijtimoiy munosabatlarga moslashuvi va shakllanishi jarayonidir.

Siyosiy fanlar nuqtai nazaridan ijtimoiy moslashuv siyosiy tizimga, uning institutlari va qonun-qoidalariga integratsiya bo'lish jarayonidir. Bu jarayonda shaxs siyosiy jarayonlarda ishtirok etish, o'z huquq va majburiyatlarini anglash va siyosiy madaniyatni o'zlashtirish orqali jamiyatga moslashadi. Siyosiy moslashuv fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, saylovlarda ishtirok etish, nodavlat tashkilotlar faoliyatida qatnashish kabi mexanizmlar orqali amalga oshadi.

Ma'lumki, ijtimoiy hayotda barqarorlik, tartib saqlanishida, uni idora etilishida jamiyat taraqqiyotining, irodasining mahsuli hisoblangan ijtimoiy tuzilma, muayyan tartib-qoidalar majmui bo'lgan siyosiy institutlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Institut atamasi birinchi marta ijtimoiy fanlarda italiyalik olim Djambattista Viko (1668-1744) tomonidan qo'llanilgan. Uning asosiy ko'rinishi siyosiy institutlar o'ziga xos tizimiga ega. Ularning shakllanishi avvalo, institutlar faoliyati yo'nalishi, maqsad va vazifalariga borib taqaladi.

“Institut” tushunchasi lotincha “institutum”, so'zidan olingan bo'lib, “o'rnatish” yoki “ta'sis qilish” ma'nolarini anglatadi. Shu ma'noda institutlarga etimologik jihatdan so'zma-so'z talqinni bergan olim M.Veber bo'lib, u davlatni institutning eng sof misoli sifatida ko'rsatadi va uni ratsional me'yorlar, konstitutsiya, qonunlar va boshqalarga asoslanadigan xulq-atvorga ega bo'lgan odamlarning hamjamiyatini tashkil qiluvchi sifatida baholaydi [12]. E.Dyurkgeym esa institutlar bir tomondan, odatlar va e'tiqodlar ko'rinishidagi ideal tashkilotlardan iborat bo'lsa, ikkinchi tomondan, ushbu odatlar va stereotiplar o'z navbatida turli vaqtlar va xalqlarning ijtimoiy tashkilotlari faoliyatida moddiylashadi, deya hisoblaydi[13].

Siyosiy institutlarga ilmiy adabiyotlarda ko'plab ta'riflar berilgan.

Siyosiy institut – bu aniq maqsadga yo'naltirilgan, tashkiliy va ijro tuzilmasi hamda apparatiga ega siyosiy tashkilot[14].

Siyosiy institut – jamiyatda o'rnatilgan va mustahkamlangan hokimiyat tuzilmasidir[15].

Siyosiy fanlarda odatda, siyosiy institutlarning uch asosiy mazmuni qabul qilingan:

- institutlar siyosiy tuzilma sifatida;
- institutlar siyosiy muassasa sifatida;
- institutlar siyosiy xulq-atvorning barqaror turi sifatida.

Shu ma'noda, siyosiy institutlarga berilgan ta'riflardan kelib chiqib, ularni yaqqol tushunish va tasavvur qilishda ularni tasniflab o'rganish maqsadga muvofiqdir. Siyosiy institutlar nazariy jihatdan rasmiy va norasmiy siyosiy institutlarga bo'lib o'rganiladi. Asosiy rasmiy siyosiy institut bu davlat, bundan tashqari rasmiy siyosiy institutlarga parlament, siyosiy partiyalar, saylov tizimi kabilarni kiritish mumkin bo'lsa, norasmiy siyosiy institutlarga jamiyatda shakllangan qadriyatlar va mafkuralar, siyosiy an'analar, urf-odatlar, qoidalarni kiritish mumkin.

Siyosiy institutlar – bu jamiyatda siyosiy hokimiyatni shakllantirish, uni amalga oshirish va nazorat qilishda muhim rol o'ynaydigan rasmiy va norasmiy ijtimoiy tuzilmalar, tashkilotlar, tizimlar va me'yoriy qoidalar majmuasidir.

Ular siyosiy tizimning tarkibiy qismi bo'lib, siyosiy hayotning barqarorligini, qonun ustuvorligini, boshqaruvning samaradorligini va fuqarolarning siyosiy ishtirokini ta'minlaydi.

Siyosiy institutlarni zamonaviy modernizatsion jarayonlarda, yangi munosabatlarda asosiy boshchilik qiluvchi tuzilma sifatida qarash ham ko'zga tashlanadi. Amerikalik tadqiqotchi T.Parsonsning fikriga ko'ra, "siyosiy institutlar, ayniqsa, davlatning zamonaviylashuv va taraqqiyot jarayoniga kirishuvida avvalo «integratsiyaviylik» xususiyati bilan ajralib turishi hamda yangicha munosabatlarni yo'naltirishda boshchilik qilishi bilan ifodalanadi"[16].

Siyosiy institutlarning shaxslar, xususan yoshlarning jamiyatga ijtimoiy moslashuvidagi o'rni va funksional roli katta, albatta. Siyosiy institutlarning ijtimoiy moslashuv jarayonidagi funksional roli jamiyat a'zolarining, ayniqsa yoshlarning siyosiy tizimga integratsiyalashuvi, ularning siyosiy madaniyati va fuqarolik ongining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu jarayonning tahlilida quyidagi holatlar kuzatiladi:

Birinchidan, siyosiy institutlar, masalan davlat organlari, parlament, siyosiy partiyalar, saylov tizimi, ommaviy axborot vositalari, ta'lim muassasalari - fuqarolarning siyosiy qadriyatlar, me'yorlar va xatti-harakatlarni o'zlashtirishida ijtimoiylashuv vositasi sifatida asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Buning natijasida individlar jamiyatdagi siyosiy qoidalarni qabul qiladi va ularga amal qilishni o'rganadi.

Ikkinchidan, siyosiy institutlar jamiyat a'zolarining siyosiy identitetni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, yoshlarda milliy, siyosiy va fuqarolik identitetning shakllanishida bu institutlarning roli muhim. Siyosiy institutlar orqali shaxslar o'zlarini fuqarolik subyekti sifatida o'rnini anglaydi. Natijada jamiyat a'zolarida, xususan yoshlarda jamiyatga daxldorlik tuyg'usi va siyosiy mas'uliyat shakllanadi.

Uchinchidan, jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan o'tkaziladigan referendumlar, hokimiyatni shakllantirish uchun o'tkaziladigan saylovlar orqali, shu bilan birga jamoat tashkilotlari, siyosiy partiyalar orqali fuqarolarga siyosiy qarorlar qabul qilishda ishtirok

etish imkoniyati yaratiladi. Buning natijasida faol siyosiy ishtirok orqali fuqarolar siyosiy tizimga moslashadi.

To'rtinchidan, siyosiy institutlarning tegishli mexanizmlar vositasidagi doimiy va tizimli amalga oshiriladigan qonuniy faoliyatlari jamiyatdagi tartib va ishonchni ta'minlab borishi jamiyat a'zolarida, xususan yoshlarda ularga nisbatan ishonchni orttiradi, jamiyatda tizimli tartibot, siyosiy barqarorlik shakllanadi hamda legitimlik mustahkamlanadi.

Beshinchidan, siyosiy institutlar ijtimoiy va siyosiy qadriyatlarni avloddan avlodga o'tkazish vositasi sifatida qadriyat va me'yorlarni uzatishga xizmat qiladi. Bu jarayon, ayniqsa, siyosiy-huquqiy ta'lim-tarbiya va OAV, internet orqali yanada kuchayadi. Buning oqibatida jamiyatda siyosiy an'analar davomiyligi ta'minlanadi.

Xulosa. Siyosiy institutlar ijtimoiy moslashuvning asosiy mexanizmlaridan biridir. Ular orqali shaxslar siyosiy tizimni anglab, unga mos ravishda yashashni o'rganadi, siyosiy faollik ko'rsatadi va o'z fuqarolik burchlarini ado etadi.

Bir so'z bilan aytganda, siyosiy institutlarning yoshlar ijtimoiy moslashuvidagi o'rni juda katta bo'lib, ularning siyosiy-huquqiy savodxonligi, huquqiy himoyasi, bandligi va ijtimoiy faolligini oshirish orqali jamiyatdagi o'z o'rnini topishga ko'maklashadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, siyosiy institutlar yoshlarning ijtimoiy moslashuvi orqali ijtimoiylashuv jarayoniga bevosita va bilvosita yo'llar bilan ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon yoshlarning siyosiy ongini shakllantirib, ularni faol, mas'uliyatli va ongli fuqaroga aylantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ш.М.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – Б.88-89.
2. Спенсер Г. Опыты научные, политические и философские. - Мн, 1998;
3. Знанецкий Ф. Исходные данные социологии // Американская социологическая мысль. - М. 1996;
4. Thomas W. Znaneccki F. Chop polski w Europe i Ameryce. Warssawa, 1976;
5. Дюркгейм Э. Метод социологии //А.И. Кравченко. Социология. Хрестоматия. - М: Академический проект; Екатеринбург: Деловая книга, 2002;
6. Парсонс Т. Система координат действия и общественная теория систем действия: культура , личность и место социальных систем // Американская социологическая мысль: тексты / Под ред. В.И. Добренькова. - М.: изд-во МГУ, 1994;
7. Мертон Р. Социальная структура и аномия // Социология преступности. - М.: изд-во «Прогресс», 1966;

8. Ориу М. Основы публичного права. Монография, ИНФРА -М, 2021 г. ISBN: 978-5-16-011647-1. - С. 77.
9. Одилқориев Х.Т , Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик., Дарслик. Х.Т.Одилқориев Т., “O‘qituvchi” НМИУ, 2008, -Б.26
10. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/ijtimoiy-moslashuv-uz/>
11. Ковалева А.И. Социология молодежи: Теоритические вопросы. – Москва.: Социум, 1999. – С.351.
12. Weber W. Spanmmgen und Krafte im Westdeutschen Verfassungssystem. Humbolt, 1970. - P. 52.
13. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. М., 1991. - С. 283-284.
14. Словарь терминов и понятий по обществознанию. Автор-составитель А.М. Лопухов. 7-е изд. переб. и доп. – М., 2013. -С. 290-291.
15. Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013. – P.58-96
16. Парсонс Т. О структуре социального действия. – М.: Академический проект. 2018. – С. 301.